

XIII. DEMOGRAFIK HOLAT VA BANDLIK

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilning 1 oktabr holatiga viloyatda doimiy aholi soni 2 914,2 ming kishini tashkil qildi va yil boshiga nisbatan 46,8 kishiga yoki 1,6 % ga ko'paydi. Shundan, 1 888,5 ming kishi – shahar joylarida (jami aholi sonining 64,8 %) va 1 025,7 ming kishi – qishloq joylarida (35,2 %) istiqomat qiladi.


Namangan viloyati hududlari bo'yicha doimiy

aholi soni to'g'risida ma'lumot

(2021- yilning 1 oktabr holatiga)

	Doimiy aholi soni, ming kishi		
	jami	shu jumladan:	
		shahar	qishloq
Viloyat jami	2 914,2	1 888,5	1 025,7
Namangan sh.	657,0	657,0	-
Mingbuloq	130,5	45,3	85,2
Kosonsoy	216,4	130,2	86,2
Namangan	182,7	55,2	127,5
Norin	168,5	77,4	91,1
Pop	225,7	128,7	97
To'raqo'rg'on	232,0	134,3	97,7
Uychi	220,8	107,2	113,6
Uchqo'rg'on	177,3	76	101,3
Chortoq	205,1	137	68,1
Chust	272,9	185,5	87,4
Yangiqo'rg'on	225,3	154,7	70,6

**Namangan viloyati shahar va qishloqlar
bo'yicha aholi soni to'g'risida ma'lumot
(2021- yilning 1 oktabr holatiga, ming kishi)**




Shuningdek, viloyatdagi jami doimiy aholining 1 480,5 ming tasi erkaklar (jami aholi sonining 50,8 %) va 1 433,7 ming tasi ayollarni (49,2 %) tashkil etadi.

Viloyatning hududiy maydoni 7,444 ming kv.km.ni tashkil etib, aholi zichligi 1 kv.km.ga o'rtacha 391,5 kishi to'g'ri keladi. Aholi zichligi yuqoriligi bo'yicha shahar va tumanlar kesimida tahlil qilib ko'rilmaga, Namangan shaharda 1 kv.km.ga o'rtacha 4 380,0 kishi, Namangan tumanida 1 kv.km.ga o'rtacha 900,0 kishi va To'raqo'rg'on tumanida 1 kv.km.ga o'rtacha 849,8 kishi to'g'ri kelmoqda.

Aholi zichligi past bo'lgan tumanlar kesimida tahlil qilib ko'rilmaga, Pop tumanida 1 kv.km.ga o'rtacha 77,6 kishi, Mingbuloq tumanida 1 kv.km.ga o'rtacha 176,1 kishi va Chust tumanida 1 kv.km.ga o'rtacha 291,2 kishi to'g'ri kelmoqda.

2021- yil 1 oktabr holatiga hududlar kesimida aholi zichligi


(1 km kv kishi)



**Namangan viloyati hududlari bo'yicha doimiy
aholi soni to'g'risida ma'lumot
(2021- yilning 1 oktabr holatiga)**

	Doimiy aholi soni, ming kishi		
	jami	shu jumladan:	
		erkak	ayol
Viloyat jami	2 914,2	1 480,5	1 433,7
Namangan sh.	657,0	338,1	318,9
Mingbuluoq	130,5	66,4	64,1
Kosonsoy	216,4	110,4	106
Namangan	182,7	93,3	89,4
Norin	168,5	85,8	82,7
Pop	225,7	113,4	112,3
To'raqo'rg'on	232,0	117,3	114,7
Uychi	220,8	110,4	110,4
Uchqo'rg'on	177,3	88,8	88,5
Chortoq	205,1	102,7	102,4
Chust	272,9	139,5	133,4
Yangiqo'rg'on	225,3	114,4	110,9

Namangan viloyati hududlari bo'yicha aholining jinsi soni to'g'risida ma'lumot
(2021- yilning 1 oktabr holatiga, ming kishi)



Aholining tabiiy harakati
(yanvar-sentabr)


	Kishi			har 1 000 kishiga	
	2020- yil	2021- yil ¹⁾	O'sish, kamayish	2020- yil	2021- yil ¹⁾
Tug'ilganlar	55 117	58 806	3 689	26,0	27,2
Vafot etganlar	9 578	9 860	282	4,5	4,6
Tabiiy o'sish	45 539	48 946	3 407	21,5	22,6
Nikohlar	15 244	16 646	1 402	7,8	7,7
Ajralishlar	1 515	2 257	742	0,9	1,0

¹⁾dastlabki ma'lumot

Aholining tabiiy harakati koeffitsiyenti

2021- yil yanvar-sentabr oylarida

(1 000 aholiga nisbatan, promille)




Tug‘ilish darajasi. 2021- yil yanvar-sentabr oylarida tug‘ilganlar soni 58 806 kishini tashkil qildi va 2020- yilning mos davriga (55 117 kishi) nisbatan 3 689 taga ko‘paydi. Tug‘ilish koeffitsiyenti mos ravishda 27,2 promilleni tashkil qildi va 2020- yilning mos davriga (26,0 promille) nisbatan 1,2 promillega o‘sish bo‘ldi.

Tug‘ilish darajasining ko‘payishi viloyatning Namangan shahrida (29,7 dan, 31,1 promillega), Norin tumanida (24,1 dan 24,9 promillega) va Yangiqo‘rg‘on (25,1 dan 26,0 promillega) tumanlarida kuzatildi.

2021- yil yanvar-sentabr oylarida hududlarda tug‘ilish darajasi


(1 000 aholiga nisbatan, promille)



O‘lim darajasi. 2021- yil yanvar-sentabr oylarida vafot etganlar soni 9 860 kishini tashkil qildi. 2020- yilning mos davriga (9 578 kishi) nisbatan 282 taga ko‘paydi. Mos ravishda o‘lim koeffitsiyenti 4,6 promilleni tashkil qildi (2020- yil yanvar-sentabr oylarida – 4,5 promille).

Vafot etganlar soni ko‘payishi Mingbuloq tumanida (3,9 dan 4,3 promillega), Chust (3,8 dan 4,3 promillega) tumanlarida kuzatildi.

2021- yil yanvar-sentabr oylarida hududlarda o‘lim darajasi (1 000 aholiga nisbatan, promille)




Nikohlar va ajralishlar. 2021- yil yanvar-sentabr oylariida FHDYO organlarida 16 646 ta nikohlar va 2 257 ta ajralishlar ro‘yxatga olindi. Ming aholiga nisbatan promilleda 7,7 nikoh (2020- yilning tegishli davrida – 7,8) va 0,9 ajralishlar (2020- yilning mos davrida – 1,0) to‘g‘ri keladi.

**2021- yil yanvar-sentabr oylarida tuzilgan nikohlar
va nikohdan ajralishlar soni**


(birlik)

	Tuzilgan nikohlar		Nikohdan ajralishlar	
	2020- yil	2021- yil	2020- yil	2021- yil
Viloyat jami	15 244	16 646	1 515	2 257
Namangan sh.	3 205	3 969	276	615
Mingbuloq	647	695	69	86
Kosonsoy	1 121	1 208	125	136
Namangan	995	1 024	78	128
Norin	903	882	104	136
Pop	1 103	1 314	151	177
To‘raqo‘rg‘on	1 339	1 434	124	165
Uychi	1 290	1 302	133	160
Uchqo‘rg‘on	955	1 014	117	145
Chortoq	959	946	83	129
Chust	1 618	1 632	173	246
Yangiqo‘rg‘on	1 109	1 226	82	134

Tumanlar (shahar) kesimida nikox tuzganlar soni va koyeffitsiyenti
(2021- yil yanvar-sentabr holatiga 1000 aholiga nisbatan, promille)




Tumanlar (shahar) kesimida nikoxdan ajralish soni va koyeffitsiyenti
(2021- yil yanvar-sentabr holatiga 1 000 aholiga nisbatan, promille)



Migratsiya. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yil yanvar-sentabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 2 501 kishini, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa 4 694 kishini tashkil qildi. Migratsiya qoldig'i manfiy -2 193 kishiga (2020- yilning mos davrida - manfiy -2 822 kishi) teng bo'ldi. Eng katta manfiy qoldiqlar Namangan shahrida (manfiy -441), Pop (manfiy -176), Chust (manfiy -441), Norin (manfiy -158) tumanlarida kuzatildi.


Tumanlar (shahar) kesimida ko'chib kelganlar soni

(2021- yil yanvar-sentabr)




Tumanlar (shahar) kesimida ko'chib ketganlar soni

(2021- yil yanvar-sentabr)



**2021- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimida
doimiy aholi sonining taqsimlanishi**




**2021- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimida doimiy
aholi sonining taqsimlanishi**

	Doimiy aholi soni			O'sish +/-
	2020- yil	2021- yil	ming kishida	
Viloyat jami	2 852,6	2 914,2		61,6
Namangan sh.	636,5	657,0		20,5
Mingbuluoq	127,7	130,5		2,8
Kosonsoy	211,7	216,4		4,7
Namangan	181,5	182,7		1,2
Norin	165,3	168,5		3,2
Pop	221,8	225,7		3,9
To'raqo'rg'on	229,0	232		3,0
Uychi	215,6	220,8		5,2
Uchqo'rg'on	173,8	177,3		3,5
Chortoq	201,1	205,1		4,0
Chust	268,0	272,9		4,9
Yangiqo'rg'on	220,6	225,3		4,7

Viloyatda o‘rtacha oylik ish xaqi 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida 2 271,0 ming so‘mni tashkil etib, viloyat xududlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, yani o‘rtacha oylik ish xaqining yuqori miqdori Namangan shahrida 2 781,5 ming so‘mni (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish xaqiga nisbatan 122,5 %) va To‘raqo‘rg‘on tumanida 2 256,0 ming so‘mni (99,3 %) tashkil etgan.

2021- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish xaqi
(Viloyatdagi o‘rtacha oylik ish xaqiga nisbatan % da)



Namangan viloyati bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish xaqi
*(qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan
tashqari, ming so‘m)*

	2020- yil yanvar-sentabr	2021- yil yanvar-sentabr	O‘sish sur’ati, % da
Viloyat jami	2 030,8	2 271,0	111,8
Namangan sh.	2 453,1	2 781,5	113,4
Mingbuloq	1 638,2	1 979,6	120,8
Kosonsoy	1 787,4	1 721,8	96,3
Namangan	1 840,0	2 210,0	120,1
Norin	1 792,8	1 980,3	110,5
Pop	1 806,6	1 982,4	109,7
To‘raqo‘rg‘on	2 107,0	2 256,0	107,1
Uychi	1 827,9	1 921,6	105,1
Uchqo‘rg‘on	2 082,0	2 035,4	97,8
Chortoq	1 620,2	1 781,5	110,0
Chust	1 562,8	1 693,2	108,3
Yangiqo‘rg‘on	1 976,7	2 159,1	109,2

**Namangan viloyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan
ish xaqi sohalar kesimida**
*(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik
subyektlaridan tashqari)*

Xodimlar soni (kishi)	O'rtacha oylik ish haqi (ming so'm)
--------------------------	---

Viloyat jami	173 196	2 271,0
---------------------	----------------	----------------

shu jumladan:

Sanoat	22 035	2 096,7
Qurilish	1 722	3 345,5
Savdo	1 594	2 784,2
Tashish va saqlash	2 178	2 149,1
Axborot va aloqa	493	2 762,7
Moliyaviy va sug'urta faoliyati	2 929	5 554,4
Ta'lim	77 423	2 232,3
Sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	38 452	1 827,1
Boshqa faoliyat turlari	26 370	2 593,6

**2021- yil yanvar-sentabr oylarida Namangan viloyati bo'yicha o'rtacha
oylik nominal hisoblangan ish xaqi sohalar kesimida**
*(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan
tashqari, ming so'm)*

■ O'rtacha ish haqi ming so'mda

